

QO'QON XONLIGI DAVRIDA QO'QON SHAHRINING YUKSALISHI

ShDPI Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo'nalishi talabalari

Muhammadiyah Zulayho va Muhammadiyeva Zahro

Annotasiya. *Ushbu maqolada Qo'qon xonligi davrida Qo'qon shahrining yuksalishi, me'morchilik, hunarmandchilik, ilm-fan, savdo-sotiq hamda shaharsozlik an'analarining rivojlanishi haqida so'z boradi. Shuningdek, Qo'qon xonlari davrida shahar obodonchiligi yo'lida olib borilgan ishlar haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Ho'qandi Latif, Chust darvozasi, mudofaa devori, Eski shahar, Yangi shahar, Xudoyorxon saroyi, Registon maydoni.*

Аннотация. *В данной статье рассказывается о возникновении города Коканда, развитии архитектуры, ремесел, науки, торговли и градостроительных традициях в период Кокандского ханства. Также были упомянуты сведения о работах, проведенных по благоустройству города в период правления Кокандских ханов.*

Ключевые слова: *Хоканди Латиф, Чустские ворота, оборонительная стена, Старый город, Новый город, дворец Худоёр-хана, площадь Регистан*

Annotation. *This article talks about the rise of the city of Kokand, the development of architecture, crafts, science, trade and urban development traditions during the Kokand Khanate. Also, information about the works carried out in the way of city improvement during the period of Ko'kan khans was mentioned.*

Key words: *Hoqandi Latif, Chust Gate, defensive wall, Old City, New City, Khudoyor Khan Palace, Registan Square.*

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 24-may kuni "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2995-sonli qarorni imzoladi. Qarorga keltirilgan sharhda tushuntirilishicha, hujjat yosh

avlodni vatanparvarlik va tarixga chuqur hurmat ruhida tarbiyalash hamda O'zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan mamlakat sifatidagi xalqaro obro'-e'tiborini yanada mustahkamlash, boy yozma merosni saqlash, o'rganish va keng targ'ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga yo'naltirilgan[1].

Manbaga oid adabiyotlar tahlili. Maqolani yozish davomida Zaxiriddin Muhammad Bobur "Boburnoma", Muhammad Hakimxon "Muntaxab at-tavarix", Is'hoqxon Junaydullox'o'ja o'g'li Ibrat "Farg'ona tarixi", Bobobekov X.N "Qo'qon tarixi", Agzamova G "O'zbekiston shaharlari (XVI-XIX asr o'rtalarida)", Eshov B. "Qadimgi O'zbekiston shaharlari tarixi" kabi manba va adabiyotlardan foydalanildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani yozish davomida ilmiy, adabiyotlar tahlili, qiyoslash, analiz, umumlashtirish, tarixiylik metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Qo'qon shahri Markaziy Osiyoning eng yirik siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaziga aylandi. 1798 yili Olimxon davridan boshlab, mamlakatning nomi rasmiy ravishda "Qo'qon xonligi" deb nomlandi va boshqaruvchi esa "Xon" deb atala boshlandi. Qo'qon xoni Umarxon davrida, shahar Qo'qandi Latif degan nisbatga ega bo'ldi. Bu go'zal, yoqimli va nafis shahar degan ma'noni anglatadi. Me'morchilik, hunarmandchilik, ilm-fan, savdosotiq nihoyatda rivojlandi. Shaharsozlik madaniyati an'anaviy so'ngi o'rta asr shaharlari usulida shakllanib, bitta umumiy markazga ega bo'lgan shahriston radial rejalangan bo'lib, balandligi 7 metr keladigan qal'a devor bilan o'ralgan. Devorlardan 12 ta darvoza ochilgan: Toshkent, Qudug'lik, G'oziyog'lik, Xo'jand, Afg'on bog' yoki Isfara, Mo'yimuborak, Qatag'on, Rishton, Marg'ilon, Tog'lik, Namangan, Chust darvozalari. Darvozalar joylashgan joyning nomi yoki darvozadan boshlangan yo'l qaerga olib borsa, o'sha joyning nomi bilan nomlangan[2].

Shaharda yirik madrasalar, ko'plab karvonsaroylar, bozorlar, hammomlar hamda boshqa jamoat binolari o'ziga xos Farg'ona maktabi usulida barpo etilgan. Bizning davrgacha yetib kelgan Madrasai Mir (1798), Madrasai Xishtin (1772),

Jome masjid (1817), “Dahmai shohon” maqbarasi (1824), “Modarixon dahmasi” (1824), Sohobzoda Hazrat madrasasi (1861), Xudoyorxon o’rdasi (1870) va boshqa obidalar arxitektura va shaharsozlik madaniyatining betakror namunalari[3]. Shaharda hunarmandlar mahalla - mahalla bo’lib yashar edilar. Shuning uchun ham shahar mahallarga bo’linib, ularning nomlari shu yerda yashaydiganlarning kasb-hunarlarini bilan nomlangan va hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan. Shaharning tarixiy qismi Registon maydoni hisoblanib, Chorsu chorrahasida joylashgan. Tarixiy manbalar va sayyohlarning aytishicha, xuddi shu Chorsudan Buyuk Ipak yo’lining ustidan Qo’qonsoy va Oqtepasoy suvi yo’nalishlarida shahar qurila boshlagan. Chorsudagi eng muhtasham bino bu Xudoyorxon saroyidir. Dastlab xon qarorgohi, keyinchalik saroy ahli yashaydigan 100 ga yaqin xona, zallar hamda bir necha hovli qurilgan. Xudoyorxon saroyi an’anaviy usul - har to’rt tomondan xonalar qurilgan ochiq hovlidan iborat rejaviy usulni takrorlaydi.

1876 yilda Qo’qon xonligi Rossiyaga qo’shib olinadi. Shundan keyin ikki tuzilmali “Eski shahar” va “Yangi shahar” qismlari paydo bo’ladi. “Eski shahar” sharq ko’hna me’morchilik obidalari bilan mashhur bo’lsa, “Yangi shahar” yuz yillardan oshgan tarixga ega bo’lgan kolonial davrdagi yevropacha me’morchilik obidalari bilan e’tiborni jalb etadi. “Rus - Osiyo banki” (hozirgi Paxta banki), “Aka-uka Vadyaevlar uyi” (hozirgi hokimlik binosi), “Rus davlat banki” (hozirgi adabiyot muzeyi), “Potelyaxovlar uyi” (hozirgi markaziy telegraf) va boshqa ko’plab binolar shaharning “Yangi shahar” qismidagi o’ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turgan, shuningdek shaharsozlik madaniyatining kolonial davridagi yangi bosqichi bo’lib tarixga kirgan. So’nggi o’rta asrlarda O’zbekiston shaharlari o’zining rejaviy tuzilishi bo’yicha bir qancha umumiy va ayrim o’ziga xos tomonlarga ega bo’lgan. Shaharlarning ko’plariga xos umumiy jihatlardan biri ularning mudofaa devorlari bilan o’ralganligida edi. Shahar devorlari ularni tashqi xavfdan himoya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy hayotni, tartibni bir maromda ushlab turishda muhim o’rin tutgan. Shu sababli ular mahobotli va mustahkam qilib bunyod etilgan. Qo’rg’on devorlar ular atrofidagi handaqlar bilan birgalikda

shaharlarning eng yaxshi himoya vositasi hisoblangan. Qo'qon xonligi shaharlari mudofaa devorlari bilan muhofazalanishi jihatidan Buxoro va Xivadan farq qilgan[4].

XIX asr mualliflari Qo'qon shaharlarining mudofaa devorlari bilan o'ralmaganligini qayd etadi. Jumladan, Kun "...Marg'ilondan boshlab, biz devor bilan o'ralgan shaharlarni juda kam uchratamiz", - deb yozadi. Bu fikrlar Qo'qon xonligining asosan yangi shaharlariga taalluqlidir. Chunki, XVIII asr boshlaridagina Buxoro amirligidan ajralib chiqqan Qo'qon xonligida Farg'ona vodiysining qadimiy shaharlari mavjud bo'lgan. Ular mudofaa devorlari bilan o'ralgan edi. Bunday shaharlardan biri Andijonning mustahkam devor bilan o'ralganligi haqida Zahiriddin Muhammad Bobur ham guvohlik berib, "shaharda uchta darvoza bor" - deb yozadi u. Poytaxt shahar Qo'qon 1842-yildagina devor bilan o'rab olingan edi. 1842-yilda qurilgan Qo'qon shahri devorining ham 12 ta darvozasi bo'lgan. Buxoro xonligi hududidan XVIII asr boshlarida ajralib

chiqqan Qo'qon xonligining rivojlanib borish jarayoni bilan birgalikda uning poytaxti vazifasini o'tay boshlagan yangi markaz - Qo'qon shahri ham shakllanib bordi. Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon, Marg'ilon, Axxi, O'sh, Isfara, Ho'janddan iborat Farg'onada yetti shahar "yetti pora qasabasi bor", - deb yozar ekan, Qo'qonni "Ho'qon o'rchini" - "viloyati ma'nosida o'z esdaliklarida eslatib o'tadi. Shu bilan birga, Bobur "o'rchin"ning ma'nosi haqida to'xtar ekan. Samarqandda. Buxoroda va umuman u o'lkalarda biror-bir yirshs viloyat poytaxtiga bo'ysungan kichik viloyatlar tuman; Andijon. Qashg'ar va ular orasidagi (yerlar) - "o'rchin' deb atalshinini qayd etadi"[5].

Is'hoqxon Junaydullaxoja Ibratning XIX asrda yozishicha, avvallari "Ho'qanddan ul shahar bo'lmagan vaqtda Ho'qand o'rni to'qay va qamishzor yerlar bo'lub... Bul to'qayzorda har xil xuk va to'ng'izlar yurar ekan... alar bu chuqurlar nima, kimlar kavlagan, deganlarida tojiki javob berib, "xuk kand" deganda, ya'ni to'ng'iz kavlagan deganda ul yerni ismi "xuk kand" bo'lgan"[6]. Bu xususda H. Bobobekovning shaharni "... ijtimoiy hayotda musulmon kishi to'liq xuklfon bo'lgan davrda xo'jalarning uni ilgari to'ng'izlar yashab xor qilgan,

bulgʻagan joyda qurishga rozilik berishi dargumon”, - degan fikri toʻgʻridir[7].

Fargʻona vodiysida yangi tashkil topgan davlat asoschilari - Ming urugʻi vakillari boʻlgan Shohruhbiy va uning oʻgʻillari xonlikni Dehqontoʻda degan joydan turib boshqarganlar. Bu haqida XIX asr muallifi Muhammad Hakimxon quyidagilarni kayd etadi: “Shohruos, otaliqning uch munosib oʻgʻli - Rahimhon, Abdulkarimbiy va Shodibiylar bor edi. Ularning yashash joyi Dehqontoʻda nomli joy boʻlib, hozirda u Qoʻqon shahrida joylashgandir”. Shohruhbiyning oʻgʻli Abdurahimbiy davrida (1722-1733) Qoʻqon shahri qurilishiga asta-sekinlik bilan kirishildi. Bu haqida Muhammad Hakimxon quyidagicha maʼlumot beradi: “Bu davrda Qoʻqon endigina qurila boshlandi va u bu viloyatning obodonligi uchun katta harakat koʻrsatdi”[8].

Qoʻqonning poytaxt sifatida rivojlanishida XVIII asr ikkinchi yarmida davlat tepasiga kelgan Erdonabiy (1751-1769) va Norboʻtabiylarning (1770-1800) hukmronlik qilgan yillarida amalga oshirilgan ishlar katta rol oʻynadi. Bu davrda poytaxt shaharda katta qurilish ishlari olib borildi. Xususan, unda toʻrtta madrasa va karvonsaroy qurildi. Ulardan biri 1799 yilda bunyod etilgan Mir madrasasi edi. Poytaxt yangi hukmdorlar - Olimxon (1800-1810), Umarxon (1810-1822) va Muxammad Alixon (Madapixon, 1822-1841) davrida meʼmoriy jihatdan boyib bordi. Jumladan, Umarxon davrida Juma masjidi (1819) va shifoxona qurildi. Madalixon davrida esa “Dahmai shohon” (1825) ansambli qurib bitkazildi. Qoʻqon nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy markaz sifatida xam rivojlanib bordi. Shahar aholisi muttasil oʻsib bordi. Qoʻqonda boʻlgan F. Nazarov (XIX) “Shahar juda katta va aholisi koʻpdir”, - deb yozadi[9]. XIX asrning 20 - yillarida Ye.K Meyendorf “Sirdaryodan oʻn chaqirim narida joylashgan Qoʻqon kamida 6000 uyga ega va kattaligi jihatidan Buxoroga tengdir , - deb koʻrsatgan edi. "Hoʻqoqdi latif” nomi bilan mashhur bu poytaxt shahar A Vamberining koʻrsatishicha, “Xivadan olti marta, Buxorodan ikki marta, Tehrondan toʻrt marta katta” boʻlgan. Albatta, bu poytaxt shahar masshtabini boʻrttirib koʻrsatilgan namunasidir. Qoʻqon shahrining rivojlanishiga doir yuqorida keltirilgan maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, juda qisqa vaqt ichida shahar

yirik siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy markazga aylandi hamda hudud hayotida markaziy o‘rinlardan birini egallab bordi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Qo‘qon xonligi davrida Qo‘qon shahri Markaziy Osiyoning eng yirik siyosiy, iqtisodiy, madaniy markaziga aylandi. Shahar Olimxon davrida xonlikning poytaxtiga aylantirildi va yuksala boshladi. Umarxon davriga kelib esa me‘morchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va savdo-sotiq nihoyatda rivojlandi. Shaharsozlik madaniyati an‘anaviy so‘ngi o‘rta asr shaharlari usulida shakllanib, bitta umumiy markazga ega bo‘ldi. Shaharda yirik madrasalar, ko‘plab karvonsaroylar, bozorlar, hammomlar hamda boshqa jamoat binolari o‘ziga xos Farg‘ona maktabi usulida barpo etilgan. Qo‘qon xonligi shaharlari mudofaa devorlari bilan muhofazalanishi jihatidan Buxoro va Xivadan farq qilgan. Uch xonlik ichida Qo‘qon xonligi o‘ziga xos o‘rin tutgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Taraqqiyot yo‘limizning shiddati oshaveradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 28-dekabrda Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasidan. // Xalq so‘zi gazetasi. 2018 yil 28 dekabr.
2. Agzamova G. O‘zbekiston shaharlari (XVI-XIX asr o‘rtalarida). – T., 2013.
3. Eshov B. Qadimgi O‘zbekiston shaharlari tarixi - T., 2006
4. Qudratov S.S. O‘zbekiston ilk shaharlari va davlatlari.- Guliston, 2005.
5. Zaxiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. – T.: 1993.
6. Is‘hoqxon Junaylulloxo‘ja o‘g‘li Ibrat. Farg‘ona tarixi / Nashrga tayyorlovchilar H. Bobobekov. M. Hasaniy // Meros. T., 1991.
7. Bobobekov X.N. Qo‘qon tarixi. G.: Fan, 1996.
8. Muhammad Hakimxon. Muntaxab at-tavarix
9. Назаров Ф. Записки о некогорыгх народах и землях средней части Азии. М.: Наука. 1968